

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**JIZZAX VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2024-YIL
YANVAR-MART**

Jizzax – 2024-y.

SO‘Z BOSHI

Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi Jizzax viloyatining ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Jizzax viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2024-yil yanvar-mart oylari yakunlari bo‘yicha Jizzax viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘-ko‘n sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (Seksiya A “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya‘ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Dastlabki hisoblarga asosan kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar keltirilmoqda.

Qisqartma va shartli belgilar

YaHM	–	yalpi hududiy mahsulot	l	–	litr
foiz	–	%	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	–	milliard	m.	–	marta
mln.	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	–	million AQSH dollari	Ga	–	gektar
kv	–	kvadrat	t	–	tonna
km	–	kilometr	1), 2), 3).....	–	izohning mavjudligi
m	–	metr			


MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR	5
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT	6–14
II. SANOAT	15–29
III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI	30–44
IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI	45–59
V. XIZMATLAR	60–75
VI. TRANSPORT	76–79
VII. ISTE‘MOL BOZORI	80–90
VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT	91–105
IX. KICHIK TADBIRKORLIK	106–109
X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	110–121
XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	122–133
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	134–143
XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	144–152

Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
2024-yil yanvar-mart

<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>2023-yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida</i>
 Yalpi hududiy mahsulot	6 368,8	107,7
 Sanoat mahsuloti	4 889,9	112,8
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari	3 166,5	103,4
 Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	4 597,1	2,3 m.
 Qurilish ishlari	825,0	116,4
 Yuk aylanmasi (mln. tn–km)	259,5	101,4
 Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi.–km)	593,3	100,8
 Chakana savdo tovar aylanmasi	2 209,6	106,6
 Xizmatlar, jami	2 812,7	111,1
 Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.)	492,2	185,4
 Eksport	47,0	96,5
 Import	445,2	2,0 m.
 Saldo (+,-)	-398,2	x

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT





Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, viloyatda 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy narxlarda 6 368,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi. YaHMning oʻsish surʼati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 107,7 foizni tashkil etdi.



2022-2024- yillarning yanvar-mart oylarida YaHMning deflyator indeksi

2022-2024- yillarning yanvar-mart oylarida YaHMning oʻsish surʼatlari

(oʻtgan yilning mos davriga nisbatan foizda)




Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy koʻrsatkichi boʻlib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha yalpi qoʻshilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yigʻindisi orqali hisoblanadi.




2022-2024 yillarning yanvar-mart oylarida YaHMning o'sishi (kamayish) sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan foizda)


YaHM




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliqchlik xo'jaligi




Xizmatlar



Sanoat



Maxsulotlarga sof soliqlar



**2024- yilning yanvar-mart oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda**

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 103,3 foiz, (YaHM tarkibidagi ulushi 30,1 foiz), sanoat – 112,8 foiz (21,6 foiz), qurilish – 115,3 foiz (5,7 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 110,5 foiz (9,0 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 114,1 foiz (5,0 foiz) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 104,8 foiz (28,6 foiz)ni tashkil qildi.




**2024- yilning yanvar-mart oyida aholi jon boshiga
hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**



*Aholi jon boshiga
hisoblangan
YaHM, ming so'm*



*Aholi jon boshiga
hisoblangan YaHM,
o'sish sur'ati*




Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 215,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,4 foizga o'sdi.



2024- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

Ko'rsatkichlar nomi	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YaHM	5 404,2	6 368,6	107,7
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 180,6	6 152,5	107,6
 Mahsulotlarga sof soliqlar	223,6	216,1	109,6
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 180,6	6 152,5	107,6
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 649,8	1 852,5	103,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 418,4	1 677,6	113,3
 sanoat	1 136,1	1 327,4	112,8
 qurilish	282,3	350,2	115,3
Xizmatlar	2 112,4	2 622,4	107,1
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	457,8	552,4	110,5
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	248,3	308,6	114,1
 boshqa xizmat tarmoqlari	1 406,3	1 761,4	104,8

Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir.



**2024- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



	<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	2023- yil	2024- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>Shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,9	96,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,1	3,4
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	31,8	30,1
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	27,3	27,3
	sanoat	21,9	21,6
	qurilish	5,4	5,7
	Xizmatlar	40,9	42,6
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,8	9,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,8	5,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	27,3	28,6

2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,6 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,4 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YaHM tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 30,1 foizni, sanoat tarmogʻi 21,6 foizni, qurilish 5,7 foizni va xizmatlar sohasi 42,6 foizni tashkil qildi.



Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi
yanvar-mart holatiga (jamiga nisbatan foizda)







● Yalpi qoʻshilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



2023-2024- yillarning yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-martida YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,3 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 30,1 %), sanoatda – 112,8 % (21,6 %), qurilishda – 115,3 % (5,7 %), xizmatlar sohasida – 107,1 % ni (42,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,5 % (9,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 106,9 % (5,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,6 % dan (28,6 %) ni tashkil qildi.



■ 2023-yil
■ 2024-yil





2023-2024- yillarning yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-martida YaHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 109,4 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 115,9 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining – 108,7 % qayd etildi..




Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2024- yil yanvar – mart oylarida – 9,0 foizni (2023- yil yanvar – martda – 8,8 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa 5,0 foizni (4,8 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 28,6 foizni (27,3 foiz) tashkil etdi.



2023-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YaHMdagi ulushi

2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 4 036,2 mlrd.so'm (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 3 752,2 mlrd.so'm)ni tashkil qildi. YaHMdagi ulushi 65,6 % (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 72,4 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

